

BADIIY MATNDA PRESUPPOZITSIYA HAQIDA

Shohmurodova Shohista Bahodirjon qizi

FarDu Filologiya 1-kurs talabasi

+998 944407844

shohistashohmurodova034@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanidagi lisoniy birliklarning pragmatik xususiyatlari, xususan, presuppozitsiya hodisasi tadqiq etiladi. Asar qahramonlari nutqidagi yashirin ma'nolar, ijtimoiy va madaniy kontekstga asoslangan mantiqiy taxminlar tahlil qilinadi. Badiiy matnda presuppozitsiyaning o'quvchi idrokiga ta'siri va asar g'oyasini ochib berishdagi ahamiyatini yoritib beradi.

Kalit so'zlar: pragmatika, kontekst, lingvistik qurshov, mantiqiy presuppozitsiya, indikator, badiiy matn, interpretatsiya

Аннотация: в данной статье исследуются прагматические особенности языковых единиц в романе Чулпана "Ночь и день" в частности феномен пресуппозицию анализируются скрытые мысли в речи персонажей а также логические допущения основанные на социальном и культурном контексте. Автор освещает роль пресуппозиции в формировании читательского восприятия и ее значимость в раскрытии идейно-художественного содержания произведения

Ключевые слова: прагматика, контекст, Лингвистическое окружение, логическая пресуппозиция, индикатор, художественного текста, интерпретации

Kirish. 60-70- yillarda til belgilarining nutqdagi amaliy qo'llanishiga xos kontekstual xususiyatlarini o'rganish bilan tilshunoslikda pragmatik yo'nalish yuzaga kela boshladi. Matnda so'zlovchi nazarda tutgan axborot har doim ham verbal ifoda tarkibida to'liq ma'noda oshkora bayonga ega bo'lavermaydi. Muloqot jarayonida so'zlovchi o'zi aytayotgan gapning mazmunini tinglovchiga oldindan ma'lum bo'lgan ma'lumotlarga tayanayotganiga ishonadi, shuning uchun ham barcha detallarni ochiq bayon qilmaydi. O'zbek tilshunosligida o'tgan asrning 80-yillaridan boshlab til birliklarining pragmatik xususiyatlarini o'rganishga qiziqish kuchaydi. Ayniqsa gap tadqiqi yuzasidan olib borilgan ishlarda presuppozitsiya hodisasiga e'tibor qaratildi. O'zbek tilshunosligi sohasida A.Nurmonov, H.Mahmudov, U.Rahimov, D.Lutfullayeva kabi soha vakillari o'zlarining ilmiy maqola va tadqiqot ishlarida presuppozitsiya hodisasini tilning ma'lum sathlari doirasida tahlil etganlar.

Presuppozitsiya tushunchasi kontekst (ushbu til birligining lingvistik qurshovi) va vaziyat (ushbu jumlaning ekstralingvistik, substrati yuzaga chiqish shart- sharoiti) tushunchalarini o'z ichiga oladi. Bu hodisa gapning turli qirralarini to'g'ri talqin etishda juda katta ahamiyatga egadir.

Presuppozitsiya so'zlovchi va tinglovchilarning umumiy bilim fondi asosida belgilanadi. Tilshunoslikda dastlab presuppozitsiyaning mantiqiy va lingvistik turlari farqlanadi. Presuppozitsiyani odatda, tarkibida maxsus ishora vositalarining mavjud bo'lishiga e'tibor qaratiladi. Boshqa tillardagi kabi o'zbek tilida ham presuppozitsiyaga ishora qiluvchi vositalar turli-tumandir. Gapdagi asosiy ma'lumotning to'g'ri yoki no'to'g'riligidan qat'i nazar, shu gapning ma'noga ega bo'lishi uchun oldindan rost deb

qabul qilinishi shart bo'lgan bilim mantiqiy presuppozitsiya hisoblanadi. Masalan, *Har yili keladigan bahor sevinchi yana ko'ngillarni qitiqlay boshladi* (Cho'lpon, "Kecha va kunduz"). Ushbu gapda bahorning har yili kelishi, ya'ni u birinchi marta bo'layotgan hodisa emasligi ta'kidlanadi. Uning har yili kelishi butun qish davomida tushkun kayfiyatda bolgan yoki sevinch tuyg'usi pasaygan ko'ngillarni yana qitiqlay boshlaganini umumiy bilim fondimiz asosida tushunishimiz mumkin

Shu bilan birga ritorik so'roq gaplar, atov gaplar, so'z gaplar, to'liqsiz gaplarning tabiatidan, o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadigan presuppozitsiyalar ham mantiqiy presuppozitsiya hisoblanadi. Demak, mantiqiy presuppozitsiya da tinglovchi matndagi axborotlar asosida oldindan bilishning jami asosida angelaydi.

"Saltanat o'zining bu sevimli qarindoshiga bu sevimli o'rtog'ini olib bermoq istamaydimi? Saltanatda bu istak bo'lgandan keyin, uni onasi bilan katta onasi bilmay qoladimi? Onasi bilan katta onasi Zebini yomon ko'radilarmi? Yomon ko'rsalar, o'z qizlarini unga muncha jonajon o'rtoq qildirib qo'yarmidilar? Zebi Saltanatdan ko'rgan ixloslarni uning onasidan va katta onasidan ko'rmaganmi? Ayniqsa, shu safar? Bu safar Saltanat uning tegrasida gir-gir aylangan bo'lsa, u ikki keksa xotin o'z yoshlariga yarasha pirpirashgan emasmi? Zebiday bir qizning kelin bo'lishini kim istamaydi? Qaysi hovli Zebini o'z quchog'iga olishdan tortinadi? Uchta xotin ustiga mingboshi ham talab bo'libdi-ku! (Cho'lpon, "Kecha va kunduz")

Mazkur parchadagi har bir ifoda ritorik so'roq gaplarda mantiqiy presuppozitsiya ifodalangan. Birinchi gapda Saltanat o'zining bu sevimli qarindoshiga sevimli o'rtog'ini olib berishni, albatta, istaydi ma'nosi, onalari ham bundan xabar topishadi, Zebini hammalari yaxshi ko'radi, agar yomon ko'rganida qizlarini unga o'rtoq qilmasdilar ma'nolari anglashilgan. Demak, yuqoridagi tahlillar asosida shuni aytish mumkinki, odatda, badiiy matnda mantiqiy presuppozitsiya berilgan axborotning ziddini tushunish, interpretatsiya qilish orqali ham anglanadi.

Lisoniy presuppozitsiya moddiy vositasiga, tashqi signallariga egaligi bilan mantiqiy presuppozitsiyadan farq qiladi. O'zbek tilida presuppozitsiyaga ishora qiluvchi vositalar turli tumanigi bilan ajralib turadi. Lingvistik vositalar orasida yuklamalar alohida o'rin tutadi. Yuklamalar muayyan nutq gap mazmuniga ma'lum ma'noda murakkablik beradi. Shuningdek, u yashirin ma'noga ishora qiladi. Presuppozitsiya yuklama anglatgan ma'no asosida belgilanadi. Ham yuklamasi 1) qo'shib hisoblash, birgalik; 2) takroriylik, 3) to'siqsizlik 4) kutish 5) o'xshatish-tenglash ma'nolarini ifodalovchi presuppozitsiyalarga ishora qiladi. Masalan, *Bog' rog' qildi, yer-suv ko'paytirdi. Ko'ngli boshqa savdolarga, o'zga ko'ylarga tushdi... Bola ham ko'ziga ko'rinmadi* (Cho'lpon, "Kecha va kunduz"). Berilgan matnda qo'shib hisoblash presuppozitsiyasiga ishora bor, ya'ni bu gapda qahramonning o'zga ko'ylarga, boylik yig'ishga, yer-suvini ko'paytirishga e'tibor qaratib bolasi ham undan tashqari ayollari ham ko'ziga ko'rinmaganligini aytmoqda.

Razzoq so'fining mijozini yaxshi bilganlari uchun ikkala qiz ham jim qolishdi. (Cho'lpon, "Kecha va kunduz"). Bu gapda ham jamlik, birgalik ma'nosi ifodalangan.

"So'ngra Zebilar oilasi singari bu oilada ham erkak bola yo'q, shu uchun qo'shni va qarindosh bo'lgan bu bola hamma vat shu hovlida bo'ladi. (Cho'lpon, "Kecha va kunduz") Mazkur gapda ham yuklamasi o'xshatish-tenglash ma'nosida kelmoqda, ya'ni Zebilarning uyida erkak bola bo'lmaganidek, bu hovlida ham yo'q, Zebilarning xonadoniga tenglashtirilmoqda.

Faqat yuklamasi o'zi aloqador bo'lgan so'z bilan birgalikda gapning semantik strukturasi murakkablashtiradi:

- *"Yaxshi, juda yaxshi... Katta merosga ega bo'lishni hammamiz ham istaymiz... Bu mashru niyat. Faqat mingboshining u katta davlatiga, har holda, bosh merosxo'r bor. Birgina Poshshaxonga tekkani seni qanoat qildirarmidi? Sen axir, o'zing ham badavlat odamsan!"* (Cho'lpon, "Kecha va kunduz")

Ham yuklamasi ishtirok etgan matnda katta merosga men ham, siz ham, u ham-xullas hamma birdek shu narsani hoʻxlaydi yaʼni hech kim chetda qolib ketmagan hammaning xohish-istagi bir nuqtada jam boʻlmoqda. Birgina soʻzida yani –gina qoʻshimchasi orqali faqat Poshshaxonga tekkan meros bilan qanoat qilarmiding, sen ham badavlat odamsan deb taʼkidlanmoqda. *“Lablarini tishlari orasiga olsa, tili oʻlgur, biroz koʻmilib turardi-ku! Faqat Miyoqub hech bir ishni bilmasdan qilmaydi!* (Choʻlpon, “Kecha va kunduz”). Bu parchada faqat yuklamasi ajratib koʻrsatishga xizmat qilgan, Miryoqubgina hech bir ishni bilmasdan qilmaydi, boshqalar emas.

Tashqari koʻmakchisi doimo chiqish kelishigidagi ot va otlashgan soʻzlar bilan birga keladi va toʻldiruvchi funksiyasida qoʻllanib, oʻzi alohida propozitsiyani anglatadi. Shuning uchun ham -dan tashqari konstruksiyasi soda gap semantik tuzilishini murakkablashtiradi.

“Darhaqiqat, katta xotinidan boʻlgan qizi Fazilatdan boshqa uning farzandi yoʻq (Choʻlpon, “Kecha va kunduz”). Bu gapda Fazilatning yolgʻiz farzand ekanligi, qahramonning undan boshqa bolasi yoʻqligi aytilmoqda.

Yuqoridagilar asosida shuni aytish mumkinki, presuppozitsiya gapni murakkablashtirishga xizmat qiluvchi hodisa, u oldindan bilishning jami, soʻzlashuvchilarning umumiy bilish fondi asosida shakllanadi, presuppozitsiyani dastlab mantiqiy va lingvistik turlari ajratiladi, mantiqiy presuppozitsiya matnda berilgan axborotni ziddini anglash asosida yuzaga chiqadi, lingvistik presuppozitsiya esa yuklamalar, koʻmakchilar, bogʻlovchilar lingvistik indikator boʻlib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N.Mahmudov.Presuppozitsiya va gap.-Toshkent, 1986.B-28.
2. Sh.safarov. Pragmalingvistika.Monografiya.-Toshkent, 2008.
3. Hakimov.M, Gaziyeva M.Pragmalingvistika asoslari-Toshkent 2020, 13b.
4. 1. A. Nurmonov, N. Mahmudov. O‘zbek tilining mazmuniy sintaksisi. - Toshkent, 1992, B-113. 5. A. Madvaliyev. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. -Toshkent, 2006-2008, B-48.
6. R. Sayfullayeva, B. Mengliyev, G. Boqiyeva, M. Qurbonova va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. O‘quv qo‘llanma. - T., «Fan va texnologiya». 2009- 277 b.